



## BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

PhD, dots. **Pashaxodjayeva Dildora**  
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti  
ORCID: 0000-0001-8015-957X

[phdildora@mail.ru](mailto:phdildora@mail.ru)

**Ikromova Odinaxon**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
ORCID: 0009-0003-2077-4169

[ikromova.odina1999@gmail.com](mailto:ikromova.odina1999@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va bunda MHXSni milliy buxgalteriya hisobida qo'llashning amaliy ahamiyati, hamda ushbu hisobotlarni qo'llash orqali iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish va bu orqali iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish masalalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi MHXSni mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llanilishini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilganligi haqida keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MXHS), xorijiy investitsiya, hisobot.

## ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В ДАЛЬНЕЙШЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА

PhD, доц. **Пашаходжаева Дилдора**  
Самаркандский институт экономики и сервиса

**Икромова Одинахон**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В данной статье раскрыта практическая значимость совершенствования системы бухгалтерского учета в Украине и применения Национальной системы бухгалтерского учета в национальном учете, а также увеличения притока иностранных инвестиций в нашу экономику за счет использования этих отчетов и этого вопросы развития нашей экономики в Украине, а также меры Президента Республики Узбекистан «Совершенствование системы бухгалтерского учета в Украине и стимулирование ее перевода на международные стандарты финансовой отчетности». Отмечается, что проект решения «о» послужил важной основой для развития применения МСФО в экономике нашей страны.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, международные стандарты финансовой отчетности, иностранные инвестиции, отчетность.

## THE IMPORTANCE OF USING INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING IN THE FURTHER IMPROVEMENT OF THE ACCOUNTING SYSTEM

*PhD, assoc. prof. Pashaxodjayeva Dildora  
Samarkand Institute of Economics and Service  
Ikromova Odinakhon  
Samarkand Institute of Economics and Service*

**Abstract.** *In this article, the practical significance of improving the accounting system in Ukraine and the application of the National Accounting System in national accounting, as well as increasing the flow of foreign investments to our economy by using these reports and this issues of developing our economy in Ukraine, as well as the measures of the President of the Republic of Uzbekistan "Improving the accounting system in Ukraine and encouraging its transfer to international standards of financial reporting It is mentioned that the draft of the decision "on" has served as an important basis for the development of the application of IFRS in the economy of our country.*

**Key words:** *accounting, international financial reporting standards, foreign investment, reporting.*

### **Kirish.**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu buxgalteriya hisobi tizimini yanada rivojlantirishdir. Chunki, barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy ahvoli haqida ularning faoliyat natijasi, ya'ni, moliyaviy hisobotlardan kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin bo'ladi. Bunda buxgalteriya tizimi bilan bog'liq qonun hujjatlarini ham yagona va asosli terminologik yondashuvdan foydalangan holda, o'zaro bog'liq tarzda ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ularning faoliyat ko'rsatishining barcha shartlari to'g'risida aniq va huquqiy bayon etilishini ta'minlaydi, shuningdek, qasddan xato va qonun buzilishi xavfini kamaytiradi va bu orqali moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni soddalashtiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisobotini yanada takomillashtirish hamda jahon andozalari darajasiga chiqarishning yagona yo'li bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg'or xorijiy tajribalarni, sohaga doir jahon adabiyotlar va hujjatlarni o'rganish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilishdan iboratdir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MXHS) – hozirgi globallashtirish sharoitida barcha uchun tushunarli bo'lgan umumiy biznes tili bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo iqtisodiyotning jadal tarzda rivojlanishi dunyoning barcha ishbilarmonlari uchun tushunarli bo'lgan yagona biznes tiliga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Ya'ni, kompaniyalar barcha investorlarga tushunarli bo'lishi uchun turli mamlakatlardagi moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini birlashtirgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni tuzishlari kerak edi. O'zbekiston Respublikasi ham jahon iqtisodiyotining a'zolaridan biri bo'lib, 2021-yildan boshlab MXHS bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobot tizimiga o'ta boshladi. Bu zarur va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri edi edi, chunki xorijiy investitsiyalar va tashqi savdo aylanmasi bo'yicha moliyaviy hisobotlar barcha xorijiy investorlar, eksport va import hamkorlari uchun tushunarli bo'lishini talab qildi.

Shuning uchun buxgalteriya tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish bo'yicha mamlakatimizda qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorining qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya sohasidagi yana bir huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda

(PQ-4611 2020). Ushbu qonunga ko'ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi lozimligi hamda bu borada bajarilishi lozim bo'lgan masalalar belgilab qo'yildi.

Iqtisodiyotimizda MXHSning qabul qilinishi va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning rag'batlantirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Zero, MXHSning qabul qilinishi dunyo bozoriga barcha uchun tushunarli bo'lgan axborotni taqdim etish va bu orqali investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida " Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish, eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish" vazifalari yuklatilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya tizimini yanada takomillashtirish orqali axborotdan foydalanuvchilarga moliyaviy holat to'g'risida shaffof va ishonchli tarzda ma'lumotlarni yetkazib berish iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Emmanuyel T. De Jorj (2015) ta'rif berishicha, MHXSning asosiy maqsadi – butun dunyo bo'ylab yagona standartlar orqali moliyaviy hisobotlarning solishtirilishini yaxshilash va yuqori sifatli buxgalteriya hisobini rag'batlantirish ekanligidir. Shuningdek, MHXS maqsadi, dunyodagi barcha mamlakatlarning moliyaviy hisobotlarining eng yaxshi jihatlari inobatga olgan holda, ularni takomillashtirib hamma uchun maqbul bo'lgan moliyaviy hisobotlarning universal standartlarini yaratish va hayotga joriy qilish yo'llarini izlab topishdir.

Grigoryan va Varaksaning (2021) fikrlaricha "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MXHS) investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha muhim rollardan biri hisoblanadi." Shuningdek, ular o'z asarlarida tashkilotning moliyaviy hisobotini shakllantirish masalasini xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy kapitaliga investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida ajratib ko'rsatib o'tishgan. Ushbu olimlarning fikrlarini ma'qullayman. Chunki bu investorga kompaniyaning haqiqiy moliyaviy holati va uning faoliyatining iqtisodiy natijalari haqida tushuncha beradi. Shu nuqtai nazardan, IFRS qoidalarini hisobga olgan holda, moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va aniq shakllantirilishi investorlarda ijobiy taassurot qoldiradi va shu sababli kapitalga yangi investitsiya fondlarini jalb qiladi.

Ergasheva va boshqalar (2019) o'z qo'llanmalarida xalqaro standartlar ning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tganlar: "Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etilishi, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo'ymoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo'jalik sub'ektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan buxgalteriya axborotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoqda. Bu holat axborotni sifatini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish, kapital bozoriga kirishni osonlashtirish kabi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Ma'lumki, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarini bilmasdan turib ushbu standartlarga o'tib bo'lmaydi.

Gordon (2022) takidlaganidek, MHXS xalqaro darajada tushunarli bo'lgan va taqqoslanadigan biznes masalalari uchun umumiy global moliyaviy tildir. U shuningdek, MHXSni butun dunyo bo'ylab moslashtirishning quyidagi afzalliklarini sanab o'tdi: aksiyadorlar va tartibga soluvchilar uchun sifatli moliyaviy ma'lumotlar, yaxshilangan taqqoslanuvchanlik, natijalarning shaffofligi oshishi, transchegaraviy listingni himoya qilish qobiliyati oshishi, global operatsiyalarni yaxshiroq boshqarish va kapital xarajatlarni kamaytirish.

Shu sababli ham bugungi globallashuv jarayonida moliya tashkilotlari, yirik korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida MHXSlar tan olinib, hisobot tizimini yuritishda tayanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham bu jarayonda faol ravishda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish hamda milliy standartlarimizga MHXSlarni joriy etishning zarurligi bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari o'rganildi hamda bu ma'lumotlar asosida tahlil xalqosalar shakllantirildi. Bu jarayonda mavjud kamchiliklar yuzasidan takliflar berildi. Shuningdek, mazkur tahlil jarayoni yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada kuzatish va tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Iqtisodiyotimiz buxgalteriya tizimini yanada rivojlantirish hamda MHXSni joriy etish bo'yicha bir qancha vazifalar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz buxgalteriya tizimida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 131.0% ga oshgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimini tubdan takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga o'tkazishning muhim ustuvor yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Bunda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi:

- buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish: Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini unifikatsiya qilish orqali MHXSga uyg'unlashgan Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini (MHMS) ishlab chiqish va uni tadbirkorlik sub'yektlari (MHXSga o'tishi belgilangan tashkilotlar bundan mustasno) faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish.

- buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasini yanada kengaytirish, MHXSga o'tadigan tashkilotlarni salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash maqsadida amaldagi tartib bilan birgalikda o'ttiz besh yoshdan oshmagan barcha fuqarolarga dastlabki ro'yxatdan o'tish va imtihon topshirish xarajatlarini imtihondan muvaffaqiyatli o'tganda qoplab berish. Shuningdek, ushbu amaliyotni 2027-yil 31-dekabr qadar uzaytirish;

- buxgalteriya hisobi sohasidagi xorijiy mamlakatlarning qonunchilik hujjatlarini va ilg'or tajribasini o'rganish natijalari asosida yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risida"gi Qonun loyihasini shuningdek, O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini 2025–2030-yillarga rivojlantirishga doir konsepsiyalarini ishlab chiqish belgilanmoqda.

- investorlarning qarorlar qabul qilishda foydali bo'lgan, global miqyosda taqqoslanadigan barqarorlik bilan bog'liq ma'lumotlarni olishlari uchun investor va kompaniyalar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlashga mo'ljallangan MHXS Barqarorlik standartlarini (IFRS Sustainability Standards) joriy qilish;

- moliyaviy hisobotlarni yig'ishni va saqlashni ta'minlaydigan yagona hisobotlar tizimi bazasida moliyaviy hisobotlar bazasini shakllantirishi hamda doimiy ravishda yuritilishini ta'minlash bo'yicha takliflar kiritilgan.

Ushbu qaror loyihasi yuzasidan quyidagi takliflarni keltirib o'tishimiz mumkun:



- xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda doimiy ravishda hisobini yuritish uchun o'zbek tilida maxsus dastur ishlab chiqish zarur. Chunki, hozirgi kunda hisobotlarning BHMS dan MXHSga transformatsiya qilinishi jarayonida xorijiy tilda hisobotlarning tayyorlanishi bir qancha qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin;

- shuningdek, ma'lum muddatgacha bo'lgan davrda mahalliy axborotdan foydalanuvchilar uchun xalqaro standartlar asosida tuzilgan hisobotlar bilan birgalikda BHMS asosida tuzilgan hisobotlarni ham parallel ravishda taqdim etish choralarini ham ko'rish lozim. Chunki bu orqali, xalqaro standartlar asosida tuzilgan hisobotlardagi ma'lumotlar bilan BHMS asosida tuzilgan hisobotlarni taqqoslashimiz va shu orqali ularning yanada tushunarliroq bo'lishiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida MHXSning qo'llanilishi va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etilishi butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soha mutaxassislaridan belgilangan vazifalarni samarali tarzda bajarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

### Xulosa va takliflar.

Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va bunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va bunga o'tishning dolzarbligi, ijobiy jihatlari va afzalliklarini hamda oqibatlarini tahlil qilish, shuningdek, nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

*birinchidan*, hozirgi globallashtirish sharoitida avvalambor barcha axborotdan foydalanuvchilar uchun birdek tushunarli va aniq bo'lishi uchun yagona bo'lgan hisobotlardan foydalanish iqtisodiyotni yanada rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omilardan biri hisoblanadi. Chunki korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash orqali ushbu moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar, asosan, investorlarni jalb qilishda ustuvorlikka erishishimiz hamda bu orqali ma'lumotlarni shaffof va to'liq taqdim etishga erishishimiz mumkin bo'ladi;

*ikkinchidan*, mamlakat miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda eng kerakli resurs bu kadrlar hisoblanadi. Shu sababdan, ushbu soha vakillarini tayyorlash tizimini tezkor ravishda ishlab chiqish va ularni rag'batlantirish orqali soha rivojiga bo'lgan e'tiborni yanada oshirishimiz lozim;

*uchinchidan*, milliy buxgalteriya hisobini MHXSning talablariga mos holda yuritish bo'yicha islohotlarni davom ettirish jarayonida amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarga, buxgalteriya hisobining milliy standartlariga zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xususan, nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalarni ham yaxlit standartlarga aylantirishimiz kerak;

*to'rtinchidan*, kompaniyada buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni maxsus dasturlar asosida yuritilishini ta'minlashimiz hamda bu orqali amalga oshirilayotgan ishlar ustidan nazoratni ham ta'minlashimiz mumkin bo'ladi.

### Adabiyotlar/Литература/Reference:

Emmanuel T. De George, (2015) *A Review of the IFRS Adoption Literature, Review of Accounting Studies, Forthcoming, 24.09.2015, page 118.*

Ergasheva Sh.T., A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, va I.R. Ibragimovalar (2019) *Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. Т.:2019.*

Grigoryan G.S., Varaksa N.G. (2021) *Financial reporting of an organization as a tool for attracting investments in the fixed capital of economic entities. Scientific result. Economic research. 2021. №. 2. p. 25-32.*

PQ loyihasi (2024). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi.*

<https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/buxgalteriya-hisobi-tizimi-va-uni-xalqaro-standartlarga-otkazishning-muhim-ustuvor-yonalishlari-belgilandi>

PQ-4611 (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>

Tashnazarov S.N. (2019) Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019.

Tashnazarov S.N. (2020) va D.D.Pashaxodjayeva. xalqaro hisob asoslari. Samarqand. 2020. O'quv qo'llanma. 2-qism.

Гордон Ж., (2022) International financial reporting standarts – explained, 2022, article. <https://thebusinessprofessor.com/accounting-taxation-and-reporting-managerial-amp-financial-accounting-amp-reporting/international-financial-reporting-standards-ifrs-definition> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.